



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM VA TARBIYANING BIRGA OLIB BORILISHI

¹Iskandarova Sitorabonu Ma'murovna

G'ozg'on shahar 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi,

²Shomurodova Oqila G'affurovna

G'ozg'on shahar 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514683>

ARTICLE INFO

Received: 27th December 2022

Accepted: 07th January 2023

Online: 08th January 2023

KEY WORDS

Hamkorlikda o'qitish, pedagogika, o'quvchi, o'qituvchi, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, mustaqil fikr, do'stona munosabat.

ABSTRACT

Umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya birgalikda, hamkorlikda olib borilmog'i lozim. Bu tarzda o'qitish pedagogikasi pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Maqolada ta'lim-tarbiya pedagogikasining rivojlanish tarixi, uni tashkil etish jarayoni haqida fikrlar bayon etilgan.

KIRISH

Ta'lim-tarbiyani hamkorlikda o'qitish pedagogika fanida ancha yillardan buyon amalga oshirilmog'ida. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi nimanidir birgalikda bajarish emas, balki birgalikda o'qishdir. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarni ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqichlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan ko'ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Ta'lim jarayonida kichik guruhlarda o'qitishdan Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiyada foydalanilgan.

Ta'lim-tarbiya pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, Y.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarni tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar [1]. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodgers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ta'lim-tarbiyani birga olib borishda shaxsiga yo'naltirilgan (rivojlantiruvchi) texnologiyalar asosida quyidagi fikrlar muhim o'rin tutadi:

1. Shaxsiga ta'limning maqsadi sifatida yangicha qarash [2]: bola maktabda to'la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda sub'ekt; shaxsning rivojlanishi – ta'lim tizimining maqsadi; har bir



erkin, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim maqsadining asosi kabi g'oyalarni aks ettiradi.

2. Pedagogik munosabatlarni insonpar- varlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo'lish, ularning taqdiri bilan qiziqish; bolani o'z kuchi va iqtidoriga ishonirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o'qituvchi va o'quvchining huquq jihatdan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o'z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish kabi holatlarni ifodalaydi.

3. Individual yondashishning yangi talqini. Uning mazmuni o'quv fanini o'quvchiga emas, balki bolani o'quv faniga yo'naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: materialni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko'ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

4. Shaxsning ijobiy «Men-konsepsiyasi»ni shakllantirish. Men-konsepsiyasi – bu shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim bo'lib, ijobiy Men-konsepsiyasi (Men o'zimga yoqaman, Men har ishga qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag'batlantirib, shaxsning ijobiy namoyon bo'lishiga yordam beradi [3]. Salbiy Men-konsepsiyasi (Men o'zimga yoqmayman, Men hech narsani bajara olmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o'qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi timsolida komil shaxsni ko'rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat.

5. «Nimaga?» va «Qanday ta'lim?» masalasini hal etishga yangicha yondashish. Uning mohiyati ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.

Zamonaviy maktabda tarbiyalash konsepsiyasi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g'oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish.

Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi [4]:

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

NATIJALAR

Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'rganilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, guruh ish natijasida mavzu (material) yaxshi o'zlashtiriladi.
2. O'quvchilar 2-3 kishilik kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.
4. O'quvchilar mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishadilar. O'qituvchi o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etadi, tayyorlaydi, ularni talab



darajasida sifatli amalga oshirilishni ta'minlaydi, muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil qiladi. Mashg'ulot va topshiriqlar o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlarni talab etadigan holda tuziladi.

5. O'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi mas'uliyati oshadi.

Hamkorlikda o'qitish nimadan boshlanadi?

guruhda har bir sherik bilan birgalikda harakat qilish;

- berilgan topshiriqlarga jiddiy qarab, faol ishlash;
- sheriklar bilan muloyim va samimiy muloqotda bo'lish;
- butun guruh, jumladan sherik yutuqlarini o'z yutug'i singari qabul qilish va birgalikda quvonish.

Hamkorlikda o'rganish o'quvchiga nima beradi?

- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga kognitiv (atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi) axborot beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni ilgari suradi;

hamkorlik shunday holatki, ta'lim jarayoni su'bektleri birgalashib faoliyat qiladi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamotchilik yuzaga keladi.

Hamkorlikda o'qitish konsepsiyasi quyidagilardan tarkib topadi [5]:

- o'quvchi bilan hamkorlik munosabati;
- o'quvchida ijobiy emotsional qoniqish hosil qilish;
- maktab ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- muloqot va mehnat qilish ko'nikma va malakasini hosil qilish;
- o'quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishonitirish;
- o'quvchiga yordam berish g'oyasi;
- har bir o'quvchi sinf ishida erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- o'quvchilar ishini rag'batlantirish maqsadida baholash.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va uslubiy asoslari:

- psixologik asoslari – o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, dars mazmunidagi tushuncha, atama va boshqa shartlarning o'quvchi uchun sodda va tushunarli bo'lishi;
- uslubiy asoslari – mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan tayyorlash, ularning talab darajasida, sifatli bo'lishni ta'minlash;
- muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

XULOSA



Ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish texnologiyalari o'quvchilarning kreativ (tadqiqotchilik xarakteriga ega, ijodiy tafakkurni jadal ravishda rivojlantirish ta'limi) qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. O'quvchilarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishiga quyidagi fazilatlar katta ta'sir ko'rsatadi:

- ijodiy fikrlash;
- o'quvchi qadr-qimmatini tan olish;
- atrof-muhit ta'siriga bolalar sezgirligini rivojlantirish;
- tanqidni to'g'ri asoslab bera bilishni rivojlantirish;
- o'zini hurmat qilishni rag'batlantirish;
- baho olishda qo'rqish hissini jilovlashga o'rgatish.

Ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish hamkorlikda o'qitishga asoslangan pedagogik jarayonda yuqorida qayd etilgan g'oyalar asosida shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish emas, balki unga o'z o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat bo'lishi lozim.

References:

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. (2016). Darslik. - T.: «Navro'z».
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. (2008). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: «Fan va texnologiyalar».
3. Safin D.V., Musina R.G. (2017). Ta'lim berish va o'qishning interaktiv usullari. O'quv qo'llanma. 5-modul, - T., -43-b.
4. Obrazovanie: odnim bolshe, drugim menshe? (2017). Regionalnoe issledovanie v oblasti obrazovaniya v sentralnoy i Vostochnoy Yevrope i SNG. YuNISEF. – M., -S. 48.
5. Umarova F. va boshqalar. (2018). Samarali maktab va hamkorlik madaniyati: Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining metodik guruhlarni o'qitish modullari. – T.: «Ipak yo'li poligraf».